XALQ DEPUTATLARI SHEROBOD TUMANI KENGASHINING QARORI

Sherobod tumani, A.Navoiy ko‘chasi 22-uy. 191400, tel.: (+99876) 322-11-26

2021 - yil 30 - dekabr VI-40-135-8-119-K/21 Sherobod tuman hokimligi

Sherobod tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2022-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalariga asosan Sherobod tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2022-yil uchun yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan tuman Davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Jumayev)ning bergan hisoboti tinglandi va bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, xalq deputatlari Sherobod tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Jumayev)ning O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalariga asosan Sherobod tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2022-yil uchun yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan bergan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. **Tuman hokimligining moliya bo‘limi (I.Qo‘shoqov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Jumayev)ga:**

-yer solig‘ining amaldagi stavkalariga 1,1 baravarga indeksatsiya qilinishi bo‘yicha taklif kiritilganligi (yuridik va jismoniy shaxslarning), qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun shahar va tumanlar kesimida ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalarini belgilanishi mumkinligi yuzasidan ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda chiqishlar tashkil etish va keng ommaga yetkazish;

-belgilangan yer solig‘i stavkalariga (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq

xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, mavze, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llashlari yuzasidan ma’lumotlarni ta’minlab berish;

-elektr uzatish liniyalari, umumdavlat aloqa liniyalari, umumiy foydalanishdagi temir yo‘llar, elektr ta’minoti qurilmalari, magistral neft va gaz quvurlari hamda shunga o‘xshash inshootlar band etgan yerlar 2022-yil uchun har bir tuman va shahar uchun o‘rtacha soliq stavkasi asosida yer uchastkasi joylashgan joydagi soliq organlari tomonidan belgilanishi va 5 yanvargacha soliq to‘lovchilarga yetkazilishini ta’minlash;

-jismoniy shaxslarning yer maydonlari uchun olinadigan yer solig‘i (turistik zonalarda joylashgan yer uchastkalaridan tashqari) summasi 2021-yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligini nazoratga olish;

-yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mavjud yer maydonlari uchun hisoblangan yer soliqlarini o‘z vaqtida va to‘liq to‘lab borishlarini nazoratga olish;

-yuridik va jismoniy shaxslarga hisoblangan yer solig‘i va undirilgan soliqlari to‘g‘risida har chorak yakunida xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot berib borish vazifalari yuklatilsin.

3. Yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari uchun 2022-yil uchun yer solig‘i stavkalari Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali “regulation.gov.uz” saytiga joriy yil 16-noyabrdan 1-dekabrga qadar muhokamaga qo‘yilganligi va ushbu davrda taklif hamda e’tirozlar tushmaganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun tumandagi mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida iqtisodiy rivojlanishiga qarab kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Sherobod tumani Adliya bo‘limining 2021-yil 15-dekabr kunidagi №1-75/1-6//164-sonli taqdimnomasiga muvofiq xalq deputatlari Sherobod tumani Kengashining 2021-yil 15-dekabrdagi “Sherobod tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2022-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash haqida”gi VI-39-115-8-119-K/21-sonli qarori amaldagi qonun hujjatlariga zid ravishda qabul qilinganligi sababli bekor qilinsin.

6. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari, tuman hokimligi axborot xizmati (A.Mamayusupov) va “Sherobod hayoti” gazetasi tahririyati (P.Muhammadiyev)ga mazkur loyihalarni amalga oshirishdan maqsad va uning tuman iqtisodiyotini yuksaltirishdagi afzalliklari to‘g‘risida televedenie, radio, rasmiy sahifalar orqali ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Sherobod tumani Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi *(A.Choriyev)* zimmasiga yuklatilsin.

8. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Hokim **Davlatov Z. U.**

Халқ депутатлари Шеробод туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-40-135-8-119-K/21-сон қарорига
1-илова

Sherobod tumanidagi mahalla fuqarolar yig‘inlari bo‘yicha yuridik va jismoniy shaxslar uchun belgilangan yer solig‘i bazaviy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsentlar

2022-yil

№	Mahalla fuqarolar yig‘inlari nomi	Yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi		Jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi	
		Koeffitsent miqdori	Soliq summasi (1 gektar uchun, so‘mda)	Koeffitsent miqdori	Soliq summasi (1 kv.m uchun, so‘mda)
1	“Bahor”	0,97	24250000	0,92	215,28
2	“Buyuk ipak yo‘li”	0,97	24250000	0,92	215,28
3	“G‘ambur”	0,97	24250000	0,92	215,28
4	“Do‘stlik”	0,97	24250000	0,92	215,28
5	“Yoshlik”	0,97	24250000	0,92	215,28
6	“Katta xayot”	0,97	24250000	0,92	215,28
7	“Qo‘rg‘on”	0,97	24250000	0,92	215,28
8	“Xo‘jgi”	0,97	24250000	0,92	215,28
9	“Balxiguzar”	0,8	20000000	0,8	187,2
10	“Boybuloq”	0,8	20000000	0,8	187,2
11	“Galaguzar”	0,8	20000000	0,8	187,2
12	“Gulchinor”	0,8	20000000	0,8	187,2
13	“G‘o‘rin-Gilambob”	0,8	20000000	0,8	187,2
14	“Dehqonariq”	0,8	20000000	0,8	187,2
15	“Majnuntol”	0,8	20000000	0,8	187,2
16	“Mehnatobod”	0,8	20000000	0,8	187,2
17	“Navbur”	0,8	20000000	0,8	187,2
18	“Taroqli”	0,8	20000000	0,8	187,2
19	“Hakimobod”	0,8	20000000	0,8	187,2
20	“Chag‘atoy”	0,8	20000000	0,8	187,2
21	“Chuqurko‘l”	0,8	20000000	0,8	187,2
22	“Cho‘mishli”	0,8	20000000	0,8	187,2
23	“G‘urjak-1”	0,8	20000000	0,8	187,2
24	“Istiqbol”	0,8	20000000	0,8	187,2
25	“Kattabog‘”	0,8	20000000	0,8	187,2
26	“Qishloqbozor”	0,8	20000000	0,8	187,2
27	“Qulluqsho”	0,8	20000000	0,8	187,2
28	“Mehrobod”	0,8	20000000	0,8	187,2
29	“Nurtepa”	0,8	20000000	0,8	187,2
30	“Oqtepa”	0,8	20000000	0,8	187,2
31	“Oltinvoha”	0,8	20000000	0,8	187,2
32	“Xo‘jaqiya-1”	0,8	20000000	0,8	187,2

33	“Cho‘yinchi”	0,8	20000000	0,8	187,2
34	“Sherobod”	0,8	20000000	0,8	187,2
35	“Bog‘iobod”	0,8	20000000	0,8	187,2
36	“Boyqishloq”	0,8	20000000	0,8	187,2
37	“Vandob”	0,8	20000000	0,8	187,2
38	“Guliston”	0,8	20000000	0,8	187,2
39	“G‘urjak-2”	0,8	20000000	0,8	187,2
40	“Zarabog‘”	0,8	20000000	0,8	187,2
41	“Qizilolma”	0,8	20000000	0,8	187,2
42	“Qorabog‘”	0,8	20000000	0,8	187,2
43	“Oyinli”	0,8	20000000	0,8	187,2
44	“Poshxurt”	0,8	20000000	0,8	187,2
45	“Uzunsoy”	0,8	20000000	0,8	187,2
46	“Uch yog‘och”	0,8	20000000	0,8	187,2
47	“Xo‘jaqiya-2”	0,8	20000000	0,8	187,2
48	“Chorbog‘”	0,8	20000000	0,8	187,2